



ISSN 3030-380X

**TA'LIMDA
ISTIQOBOLLI
IZLANISHLAR**

ХАЛQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**
Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**
International scientific methodological
journal

№ 10/1 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
TILAVOV MUXTOR HASAN O'G'LII
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулемшов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi mudiri).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Davlatov Suxrob Sayitjonovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti O'quv-uslubiy departament boshlig'i).

Adizov Bobir Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlantirishni rejorashtirish departamenti boshlig'i).

Paxrudinov Shukriddin Ilyosovich - siyosiy fanlar doktori, professor. Oriental universitetning "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi professori.

Akramova Shaxnoza Abrorovna - pedagogika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig'i, podpolkovnik).

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriental universitetning "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi professori.

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri).

G'ofurov Azizbek Umarjonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, (Farg'on davlat universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mexriniso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va elektronika kafedrasi dotsenti).

Xotamov Shuxrat Nosirovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy texnik instituti Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti).

Fayziyeva Umida Asadovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti).

Axmadow Nazirjon Rahmat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi).

Uzoqov Asliddin Mexritdinovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'ribbosari).

Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (University of Business and Science Oliy ta'lim muassasasi "Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi" boshlig'i).

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Qahramonovich	o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari	
Ostanaqulov Alijon Dadajon o'g'li	O'smirlarda kuzatiladigan xavotir hissining psixologik asoslari va uning statistik tahlili	122
Sadikova Umida Botirovna	Psixologiya yo'naliishi talabalarining kasbiy qiziqish hamda kasbiy mukammallikni rivojlantirishdagi psixologik xususiyatlari	125
Nusratov Azizbek Fatillo o'g'li	O'quvchilarda o'zbek musiqa folklori tasavvurlarini shakllantirishda ta'sir etuvchi psixologik omillar	130
Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna	Yoshlarda oila to'g'risidagi gender munosabatlarini o'ziga xos xususiyatlari	136
Dusmetova Maksuda Matnazarova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining namoyen bo'lishi	141
Ozodova Madina Hamza qizi	O'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini tarkib toptirish usullari	146
PEDAGOGIKA		
Rahmonova Xurshida G'aybullayevna	Fizikadan masalalar yechishda ishlatiladigan fizik kattaliklar birliklari to'g'risida	152
Bazarova Saodat Djamolovna	Fizikadan kasbga yo'naltirilgan masalalar yechish orqali "elektr" bo'limidan mavzularni mustahkamlash	160
Boqiyev G'ulomjon Ochilovich	Uzviylikni ta'minlashning pedagogik-psixologik asoslari	166
Gaybulova Gulnora Sadullaevna	Aspects of teaching the biophysics course in medical universities	172
Tursunova Ozoda Faxritdinovna	Ona tili darslarida "paronimlar o'quv lug'ati"dan foydalanish metodlari	180
Ismoilova Shodiya Xusanboy qizi	Qo'shimcha chet tili o'rganish jarayonida kognatalarning ijobiy ta'siri	187
Bobomurodova Guzel Olim qizi	From the history of psycholinguistics	191
Gafurova Moxira Yunusovna	Adaptiv jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi	199
Mamataliyeva Zilola Abdulfayz qizi	Oliy o'quv yurtlarida texnika fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalar	205
Hukmaev Kamoliddin Husniddinovich	Ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya: muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari	209
Hamdamov Behzod Habibovich	Ijtimoiy fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	214
Saparova Shahlo Ramazonovna	Elbek asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish	221
Qurbanova Go'zal Rajab qizi	Maktabgacha ta'lim tashkilotida immersiv texnologiyalardan foydalanishning dolzarbliji va ijtimoiy ahamiyati	227
Zaylopova Maxpiratxon	Monomarkzlarda yoshlarni kasb hunarga o'rgatish orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	231
Fayziyeva Firuza Giyosovna	Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish usullari	234
Tadjixon Sabitova	Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni qiyosiy o'qitishning innovasion texnologiyalari	240
Nurullayev Firuz		248

Saparova Shahlo Ramazonovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
gmail:saparovashahlo243@gmail.com

ELBEK ASARLARIDAN FOYDALANIB BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida ham ijod, ham pedagogik faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan jadid ma'rifatparvari Elbek (asl ismi Mashriq Yunusov, 1898-1938)ning bolalar uchun yaratgan asarlari keltirilgan. Elbekning bu asarlari "Elbek ijodidan topilmalar", "Go'zal yozg'ichlar" darsligi(boshlang'ich maktablarning 4-bo'limlari uchun tuzilgan o'qish kitobi) va "Armug'on. Yolqinlar" to'plamlaridan olingan. Maqolada Elbekning "Ot ila odam" masali va "Mozor" she'riy ertaklaridan bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishda "Delfi", "Blum taksonomiyasi" kabi metod va topshiriqlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Masal o'qitish metodikasi, "Delfi" metodi, "Blum taksonomiyasi", Elbekning "Ot ila odam" masali, "Mozor" she'riy ertagi.

Abstract: This article presents the works created for children by Elbek (real name Mashriq Yunusov, 1898-1938), a modern enlightener who was engaged in both creative and pedagogical activities in the 20s and 30s of the 20th century. These works of Elbek are taken from "Elbek ijodidan topilmalar"(the meaning: Findings from Elbek's work), the textbook "Go'zal yozg'ichlar" (reading book for the 4th grade of primary schools) and "Armug'on. Yolqinlar" collections. In the article, methods and tasks such as "Delphi", "Bloom's taxonomy" are used to improve the methodology of teaching children's literature from Elbek's parable "Ot ila odam"(the meaning: Horse and Man) and poetic fairy tale "Mozor"(the meaning Graveyard).

Key words: Parable teaching methodology, "Delphi" method, "Bloom's taxonomy", Elbeck's parable "Ot ila odam", poetic tale "Mozor"

Аннотация: В данной статье представлены произведения, созданные для детей Эльбеком (настоящее имя Машрик Юнусов, 1898-1938), современным просветителем, занимавшимся как творческой, так и педагогической деятельностью в 20-30-е годы 20 века. Этими произведениями Эльбека являются взято из "Elbek ijodidan topilmalar" (Выводы из творчества Эльбека), учебник "Go'zal yozg'ichlar" (книга для чтения для 4-го класса начальной школы) и коллекции "Armug'on. Yolqinlar". В статье для совершенствования методики преподавания детской литературы на основе притчи Эльбека "Ot ila odam" (Человек с лошадью) и поэтических сказок "Mozor" (Могила) используются такие методы и задания, как «Дельфи», «Таксономия Блума».

Ключевые слова: методика преподавания притчи, метод «Дельфи», «систематика Блума», притча Эльбека "Ot ila odam", поэтическая сказка "Mozor".

Kirish. Bugungi yangi O'zbekistonda ta'lif sohasida yuz berayotgan o'zgarishlardan, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalana olish, chet el tajribalarini o'rganish va uni amaliyotga joriy etish, ilim-fan sohasini yanada rivojlantirish kabi ahamiyatli vazifalar bugungi kunning dolzarb muommolariga aylanmoqda. Shuningdek, maktablardagi ta'lif tizimini yangilash, bugungi kun talablariga javob beradigan innovatsion darslik yaratish, yangi metod va usullarni dars jarayonida qo'llash, bolalarning sifatli bilim olishiga yordam berishga xizmat qiladi.[4]

XX asrda yashab ijod qilgan, jadid maktablari va pedagogika bilim yurtlarida muallimlik qilgan jadid ma'rifatparvari Elbek bolalar adabiyoti uchun turli janrlarda asarlar yaratib, shu asarlarini dars jarayonida o'qitgan. Elbek ijodini H.Uzoqov, U.Dolimov, U.Amonov va boshqa tadqiqotchi olimlar o'rganishgan. Biz esa Elbek ijodini bolalar adabiyotini o'qitishda turli usullardan foydalanib takomillashtiramiz. Bu metodlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilarga, Oliy ta'lif professor o'qituvchilari esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga jadid ma'rifatparvari, pedagogik olim Elbekning bolalar adabiyotiga oid

asarlarini sinfda va sinfdan tashqari ishlarda o'qitish uchun, ta'lim va tarbiya berishda foydalanishlari mumkin.

Metodlar. Masalni o'qitish metodikasi. Masal — axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar — hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi.[5]

Masal o'qish darsining qurilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari:

- a) masal muallifi haqida o'qituvchi hikoyasi;
- b) o'qilgan masal mazmuni bilan bog'liq suhbat;
- d) o'qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o'qituvchi o'qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko'rsatish ham mumkin)

Masal matni ustida ishslash:

- a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o'qish, reja tuzish va hokazo);
- b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe'l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o'qish, so'z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);
- d) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;
- e) krossvordlar, ta'limiy o'yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g'oyasini o'zlashtirish.

4. Allegoriyanı ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan shunga o'xshash hodisalarga taqqoslash.[5]

"DELFI" metodi. Metod taklif qilinayotgan muqobil javoblar ichidan eng yaxshisini tanlashga yordam beradi. Buning uchun jamoaning a'zolaridan muayyan mavzu mohiyatini ochib beruvchi eng maqbul javoblarni bildirish taklif qilinadi. Bildirilgan javob variantlari to'planadi. So'ngra jamoaning har bir a'zosidan ma'lum ketma-ketlikda mavjud javoblarning har biriga baho berish talab qilinadi.

Amalga oshirish mexanizimi va vazifalar. 1. O'quvchilarga tahlil asosida ma'lum jarayonning yuz berishiga olib kelgan beshta sababni aniqlash va ular orasidan eng muhim sababni topish vazifasi yuklatiladi.

2. Muhokama qatnashchilari dastlab muammolarning barcha sabablarini muhimlik darajalari bo'yicha ajratadi.

3. Har bir qatnashchi o'zining muqobil javob variantlaridan birini tanlab, barcha variantlarni saqlaydi (ya'ni ularni muhimligiga ko'ra darajalarga ajratadi va tartib raqami bilan belgilab chiqadi).

Blum taksonomiyasi. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O'quv maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orgali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.[15]

1-jadval

Blum taksonomiyasi bosqichlari

1. BILISH

dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriylar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shukabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqeа-hodisalarini bayon

	qila oladi.
2. TUSHUNISH	darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi (so'zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi.
3. QO'LLASH	darajasidagi tafakkurda o'quvchi oлган bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir model, formula, ko'rsatma asosida to'g'ri qo'llaydi.
4. TAHLIL QILISH	darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtaсidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi.
5. SINTEZ	Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko'rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg'u beruvchi ijodiy xarakterdagи faoliyatni taqozo etadi.
6. BAHOLASH	Mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Dars bosqichlariga asosan yangi mavzuni mustahkamlash qismida quyidagi metodlardan foydalanib, o'quvchilarning bilim va malakalari tekshiriladi.

1. "Delfi" metodi asosida Elbekning "Ot ila odam"[1] masalini mustahkamlaymiz:

(Masalning qisqacha mazmuni: Asar qahramoni Ot keng yaylova o't-o'lanlardan oziqlanib, buлоqdan suv ichib, yakka o'zi rohatda yashardi. Bir kun uning oldiga Ho'kiz kelib qo'shildi. Ot ho'kizdan qutilish uchun borib Odamdan yordam so'raydi. Odam yordam berishga rozi bo'ladi, lekin yolg'iz o'zi piyoda yurib ho'kizni tutolmasligini otni egarlab birga tutish mumkinligini aytadi. Ot ham rozi bo'lib, ikkovlashib ho'kizni tutib bog'lab qo'yishadi. Lekin, oxirida odam otningustidan tushmaydi. Ot erkinlikni sevishini aytib, odamdan uni qo'yvorishini yolvorib so'raydi. Odam esa uning gaplariga parvo qilmay, otni ham ho'kizning oldiga bog'lab qo'yadi.)

Topshiriq: Otning odamga bandi bo'lishiga asosiy sabab nimada deb o'ylaysiz? Shu sababni masaldan topib o'qing. Sabablarni voqealar rivoji asosida ketma-ketlikda raqamlang.

- Ot yolg'iz yashashga o'rganib qolganligi;
- Otning ho'kiz bilan birga qo'shib bog'lab qo'yilgani;
- Ot odamdan yordam so'riganligi;
- Ot odamni uni egarlashiga ruxsat bergenligi;
- Otning ho'kizdan achchiqlangani.

(Javoblar: 1,5,3,4,2.)

2. Elbekning "Mozor"[1] asarini o'qitishda "Blum taksonomiysi", "Ertak terapiyasi", "Teskari test" metodi, "Quiz bot" testlaridan foydalanish mumkin. Dastlab, she'riy ertakni o'qituvchining o'zi ifodali o'qib beradi, keyin o'quvchilarga ayrim satrlarni tanlab o'qitadi.

MOZOR

Ko'b qiziq ish bo'lur ekan shul dunyoda,
Ko'rmaganlar qolar ekan ko'b armonda.
Belgili vaqt umr surub o'lgandan so'ng

Ko‘b ishlarni bilmay qolar ekan banda.
Kim ana shuning uchun senga o‘tmishlardan
Darak berib, aytib o‘tar bo‘lmishlardan.
Siz ham o‘qub, ajab emas, ko‘rganlarday
Bo‘lg‘aysiz, deb ertakni-da bir-bir boshlay.
Bir bor ekan, bir yo‘q ekan shul dunyoda
Bir boy kishi bo‘lg‘on ekan ilgarida.
Bu boyning moli, joni ko‘pligidan
Har yil qishlab qolar ekan bir dalada.
Uning moli kundan kunga ilgarigidan
Oshib-toshib har kuniga ko‘payavergan.
Boy o‘zi munga juda hayron qolib,
Sababini bilmak uchun ko‘b tirishg‘on.
Eng oxirida sababini bilalmasdan,
Bir folchini chaqirtirib undan so‘rg‘on.
Folchi uning ishin qarab bo‘lg‘ondan so‘ng
Boyg‘a qarab turub, ushbu so‘zni degan:
«Molingizg‘a Tangri o‘zi qut kirgizmish,
U1 qut hozir bir qo‘chqorning shoxida emish.
Menga jinlar shundayin deb aytishdilar,
Qo‘chqorni hech so‘ymasun!» deb o‘tunishdilar.
Boy folchidan bu so‘zlarni eshitkan so‘ng
Sevingandan folchig‘a ko‘b tortiq bermish.
Endi qutli shul qo‘chqorning yonidan hech
Ayrilmayin kecha-kunduz qarab turmish.
Biroq esiz qo‘chqor bir kun o‘z-o‘zidan
Baxtga qarshi ko‘b yashamay o‘lub qolmish.
Boy bunga qayg‘ulanib chidolmayin
Sira timmay ko‘b vaqlar yig‘lab yotmish.
Lekin yig‘i bilan muni tirlitmak
Qayg‘u bilan bir foydali ish bitirmak
Mumkin emasligin bilgach, boy o‘zi-da
Endi uni ko‘mmak ishiga tayyorlanmish.
Qutli qo‘yning ko‘milishin ko‘b kishilar
Eshitgachoq hech qolmayin kelishmishlar.
Barchalari uni ulug‘ siylar ekan;
Shul yerdagi og‘ochliqqa ko‘mishmishlar.
Shuning uchun shul kungacha ko‘b kishilar
Boyliq so‘rab shul qo‘chqorg‘a borishalar.
Hamda uni eska olmoq uchun har choq
Qo‘ylar so‘yub, shoxlarini ilishalar...
Mana, shunday qilib, biznimg boyaqish boy
Qo‘chqoridan ajrab, yig‘lab ko‘b yil-u oy,
Eng so‘ng o‘zi-da qayg‘u; alam bilan o‘lmish,
O‘g‘illari uni-da qo‘chqor yonig‘a ko‘mmish.
Shundan beri u yer mozor bo‘lib qolmish,
Ziyoratchi shayxlar bilan ichi to‘lmish...

Elbek[1]

“Blum taksonomiyasi” asosida quyidagi topshiriqlarni berib, mavzuni mustahkamlash mumkin.

1-topshiriq:

- She’riy ertak nima haqida ekan?

- She'riy ertakdag'i qaysi jumlalar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

2-topshiriq:

Bu boyning moli, joni ko'pligidan

Har yil qishlab qolar ekan bir dalada.

Shu ikki misrada qaysi so'z va iboralar o'z ma'nosida qo'llanmagan? Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.

3-topshiriq: Folchi aytgan jumalalarni topib o'qing. Misralarda keltirilgan "banda, armon, o'tmish, qishlab qolmoq, qut, Tangri, tortiq, bitirmak, og'ochliq, ziyoratchi, shayx" so'zlarining ma'nosini izohlang.

4-topshiriq:

- She'riy ertakda nimalar haqida gap boryapti?

- O'ylang, she'riy ertakda nechta qahramon bor? Ular qaysilar? (*boy, folchi, qo'chqor, o'g'illar, kishilar, ziyoratchilar*)

- She'riy ertakda kim "Qo'chqorni hech so'ymasun!" deb aytadi? (*jinlar folchiga, folchi boyaga*)

- Qo'chqorni qayerda ko'mishadi, odamlar uning qabriga nima uchun borishardi?

5-topshiriq:

- She'riy ertakdan qanday xulosa chiqardingiz, sizningcha qo'chqorni ko'mish yoki uni boylik olib kelishiga ishonish to'g'rimi? Hayotingizda shunga o'xhash voqealarni eshitib yoki ko'rganmisiz?

6-topshiriq:

- Asar mazmuniga mos maqol va iboralar topib aiting.

(*Birga qarab fikr qil, birga qarab shukr qil. Folga ishonma, folsiz yurma.*)

Xulosa va tavsiyalar. XX asrning buyuk pedagogi Elbek jadid maktablari ochib, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratdi, shu kitoblarda o'zining bolalar uchun yozgan asarlaridan hikoyalar, masallar, she'rlarini jamlab, turli xil qiyinchiliklarga qaramay nashr ettirdi va maktablarda o'qitdi. Bugungi kunda ham uning asarlaridan o'quvchi/talabalarga ta'lim va tarbiya berishda, o'qish savodxonligi/bolalar adabiyoti kabi o'quv predmeti/fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Elbekning asarları bolalarni/yoshlarni Vatanparlik, erksevarlik ruhida tarbiyalashda va xotin-qizlarning ta'lim olishga, rivojlanishga da'vat etishi bilan o'z dolzarblik ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqotimiz jarayonida ilmiy rahbarim, BuxDPI dotsenti, PhD U.S.Amonov boshchiligidagi Elbek asarlarini to'plab, arab yozuvidan lotin yozuviga tabdil qilib "Elbek ijodidan topilmalar" nomida kitob nashr ettirdik. Elbekning bu asarlarini yuqorida keltirilgan turli metodlar, topshiriqlar, Akt vositalari, tarqatma materiallar tayyorlab boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga bolalar adabiyotini o'qitishda foydalanib, talabalarning Elbek ijodiga bo'lgan qiziqishini oshirdik. Bu usullardan o'qituvchilar Elbek ijodini o'qish savodxonligi va bolalar adabiyotini o'qitishda foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elbek ijodidan topilmalar. To'plam. Nashrga tayyorlovchilar: U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. – Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2024. – 168 b.

2. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407. 8.

3. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.

4. Bazarbayeva Ulbolsin Bazarbay kizi "Ona tili darslarida scaffolding metodini foydalanishning ahamiyati" ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №12) <http://interscience.uz>

5. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta 'lim fakulteti talabalari uchun darslik) - T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
6. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'Qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>
7. Saparova Sh.R. "The classification of Elbek poems in 5 directions" ped_mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.
8. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52> <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>
9. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>
10. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023 ISSN (E): 2993-2769. P-564-572
View of Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" (grnjournal.us)
11. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>
12. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek va Sadriddin Ayniy asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari" "Ta'limda istiqbolli izlanishlar"
<https://buxdu.uz/ru/147-talimda-istiqbolli-izlanishlar/6070/6070-talimda-istiqbolli-izlanishlar/>
13. Saparova Shahlo Ramazonovna "Pedagogical importance of using the works of Sadriddin Ayniy in children's literature" <https://top-conferences.us/index.php/ICLLT/article/view/796> <https://top-conferences.us/index.php/ICLLT/index>
Vol. 8 (2024): International Conference on Linguistics, Literature And Translation Published: 2024-10-03
14. Saparova Shahlo Ramazonovna "The importance of Elbek's works in improving the methodology of teaching children's literature (works of "Ot ila odam", "Erk qizig'a", "Ko'klam chog'ida yaproqlar")" <https://top-conferences.us/index.php/ICALT/article/view/814> International Conference on Adaptive Learning Technologies 2024-09-28 p-76-79.



**"TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR"
XALQARO ILMYI METODIK JURNALI UCHUN
MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

"Ta'limda istiqbolli izlanishlar" ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. "Ta'limda istiqbolli izlanishlar" ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E'lon qilinadigan maqolalarga bo'lgan asosiy talablar:

■ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;

■ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro'yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;

■ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so'z) va tayanch so'zlar (8-10 ta) ingliz, o'zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to'liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo'lsa, ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko'rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e'lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o'ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilari kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to'liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo'lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma'ruzalari chop etilmaydi. E'lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko'chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o'zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnnini qisqartirish va unga tahriri o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>

Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90